

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Surunkali diareya kuzatilgan saraton bilan kasallangan bemorlarda patogen ichak mikroflorasini o‘rganish va profilaktika hamda davolashni optimallashtirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - Surunkali diareya kuzatilgan saraton bilan kasallangan bemorlarda patogen ichak mikroflorasining tarkibi va tuzilishi yoshga nisbatan aniqlanadi. - Surunkali diareya kuzatilgan saraton bilan kasallangan bemorlarda virusli ichak infeksiyalarining (noro-, astro-, roto-, adenoviruslar) chastotasi aniqlanadi. - Surunkali diareya kuzatilgan saraton bilan kasallangan bemorlarda virusli va bakterial ichak infeksiyalarining klinik va laborator xususiyatlarining tavsifi aniqlanadi. - Saraton bilan kasallangan bemorlarda surunkali diareya rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillar aniqlanadi. - Olingan ma’lumotlar asosida virusli va bakterial ichak infeksiyalarining oldini olish va davolash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqotlar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligi xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalar asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi